

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIY
FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism	6
--	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
---	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li	14
---	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari	33
--	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	40
--	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari	43
---	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi	48
--	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
--	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari	62
--	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat	67
---	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari	75
---	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari	90
--	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili	93
--	----



UO'K: 101.1

**POSTMODERN JAMIYATDA AXLOQIY QADRIYATLARNING O'ZGARISHI
DIALEKTIKASI****ДИАЛЕКТИКА ИЗМЕНЕНИЯ МОРАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ПОСТМОДЕРНИСТСКОМ
ОБЩЕСТВЕ****DIALECTICS OF THE TRANSFORMATION OF MORAL VALUES IN POSTMODERN
SOCIETY****Xusanov Davronjon Ma'rufjonovich** 

Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishning nazariy asoslari, postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishining dialektik tahlili, postmodern jamiyatning axloqiy qadriyalarini shakllanishi va unga yondashuvning istiqbollari o'rganilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekistonda postmodern jamiyatning axloqiy madaniyatning shakllanishi masalalari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье представлены теоретические основы социально-философского исследования диалектики изменения моральных ценностей в постмодернистском обществе, диалектический анализ изменения моральных ценностей в постмодернистском обществе, формирование нравственности. изучаются ценности постмодернистского общества и перспективы подхода к нему. Также анализируются сущность, научные и концептуальные основы понятия «Постмодернистское общество».

Abstract

In the article, the theoretical foundations of the socio-philosophical research of the dialectic of the change of moral values in the postmodern society, the dialectical analysis of the change of moral values in the postmodern society, the formation of the moral values of the postmodern society and the perspectives of the approach to it are studied. Also, the essence, scientific and conceptual foundations of the concept of "Postmodern society" are analyzed.

Kalit so'zlar: postmodern jamiyat, axloqiy qadriyatlar, dialektika, dialektik tahlil, ijtimoiy normalar, axloqiy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, separatizm, fundamentalizm, ijtimoiy qonuniyatlar, an'anaviylik va zamonaviylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, tizimli va funksional.

Ключевые слова: постмодернистское общество, моральные ценности, диалектика, диалектический анализ, социальные нормы, моральное мировоззрение, национальные и общечеловеческие ценности, сепаратизм, фундаментализм, социальные законы, традиционализм и современность, сравнительный анализ, анализ и синтез, систематический и функциональный.

Key words: postmodern society, moral values, dialectics, dialectical analysis, social norms, moral outlook, national and universal values, separatism, fundamentalism, social laws, traditionalism and modernity, comparative analysis, analysis and synthesis, systematic and functional.

KIRISH

Moddiy va ma'naviy qadriyatlar o'z-o'zicha, bo'shliqda paydo bo'lmaydi. U muayyan qonuniyatlar asosida xalq, millat va elatlarning ozodligi, baxt-saodati, ravnaqi, istiqbolu istiqboli yo'lida jon fido qilgan ona Vatanning komil farzandlari tomonidan yaratiladi va shaxsning ma'naviy kamolotga yetishiga xizmat qiladi.

Shaxsning ma'naviy kamolotga erishishi jarayonida shakllangan komil inson, bir tomondan, barcha yaratilgan hamda yaratilayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarning ijodkori, bunyodkori bo'lsa, ikkinchi tomondan, yillar, oylar, kunlar osha xalq, millat, elatning, qolaversa, shaxsning hayot faoliyatidan qadriyat maqomini olgan har bir narsa, voqea, hodisa, jarayon avlodlarning faol davomchisi bo'lgan yangicha tipdagi ma'naviy barkamol insonlarni shakllantirishda muhim vosita qurol vazifasini o'taydi. Bu -cheksiz davom etadigan dialektik jarayon hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shaxs axloqiy va ijtimoiy-ma'naviy madaniyatini rivojlantirish masalalari, nazariy-metodologik asoslari, shuningdek, axloqiy va ma'naviy madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy, tarixiy

FALSAFA

muammolari bilan bog'liq masalalar J.Anderson, S.Anisimov, G.Belov, M.Veber, I.Ilin, V.Konev, Y.Borev, L.Gumilyov, A.Guseynov, V.Lektorskiy, I.Ilinskiy, M.Kagan, S.Agzamxodjayeva, J.Tulenov, I.Imomnazarov, I.Jabborov, Y.Jumaboyev, E.Yusupov, S.Shermuxammedov, X.Shayxova, Mahmud Sattor, A.Jalolov, S.Otamuratov, A.Sharipov, J.Yaxshilikov, N.Muxammadiyev, A.Erkayev, O.G'aybullayev, I.Arzimatova, D.Normatovalar tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'naviyat, odatda, umuminsoniy ma'naviyat, millat ma'naviyati, shaxs ma'naviyatiga ajratiladi. Umuminsoniy ma'naviyat – bu barcha xalq va elatlarga xos bo'lgan, ularning insoniy fazilatlarini ifodalaydigan an'analar, urf-odatlar, intilishlar, g'oyalar, sog'lom fikr, yuksak did bilan baholash qobiliyati shu asosda qilinadigan harakat va faoliyatdir. Milliy ma'naviyat – bu har bir millat va elatning o'ziga xos axloqiy qadriyatlarini, mintalitetini o'zida ifodalaydigan tafakkur va xatti-harakatlarning yaxlit bir tizimidir. Masalan, dunyoda yashovchi barcha insonlarning tinch-osuda, sog'-salomat hayot kechirishga, mehnat qilishga urinishlari, fikr, xayol va orzu-umidlari umuminsoniy ma'naviyat jumlasiga kirsa, demokratik suveren davlat qurish, tenglar ichida teng bo'lib yashash millat ma'naviyatiga kiradi.

Umuminsoniy va milliy ma'naviyatni harakatga keltiruvchi kuch, uning ijodkori - shaxs ma'naviyati hisoblanadi. Shaxs ma'naviyati qanchalik yuksak bo'lsa, umuminsoniy va milliy ma'naviyat ham shunchalik umrboqiy bo'ladi. Shaxs ma'naviyati deb, har bir kishi o'zini insoniyat farzandi, muayyan millat vakili, davlat fuqarosi deb bilgan holda, o'z Vatani tuprog'ini, suvini, havosini, jamiki boyliklarini ko'z qorachig'iday asrashi uning ozodu obodligi, ravnaqi yo'lida hormay-tolmay mehnat qilishi; har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini hurmat qilishi; izzatini joyiga qo'yish yo'lida chin vijdon, imon, e'tiqod, sadoqat, ishonch, halollik, dovyuraklik, beg'arazlik, hurmat, katta fidoyilik va aqliy teranlik bilan faoliyat olib borishga qaratilgan ichki ruhiy va aqliy olamining majmua aytiladi.

Shunday qilib, shaxs ma'naviyati:

Birinchidan, hissiy va aqliy jihatdan o'zining kimligini, ya'ni o'zligini anglashi, aniqrog'i, qaysi odamning, millatning, Vatanning farzandi ekanligini idrok etishi;

ikkinchidan, o'zi mansub bo'lgan oila, millat, Vatan bilan faxrlanishi, g'ururlanishi;

uchinchidan, oilasi, millati, Vatanining ravnaqi yo'lida ilm olish, tarbiya topish hamda unga sadoqat, imon-e'tiqod bilan hizmat qilishi;

to'rtinchidan, har qanday insonning haq-huquqlarini hurmatlashi;

beshinchidan, ilm-fanni insoniyat rivojini ta'minlovchi, odamlarning og'irini yengil qiluvchi vosita, deb bilishi, shuningdek, ajdodlar xotirasiga chuqur hurmat bajo keltirish kabi bir qator ichki ruhiy va aqliy his-tuyg'ular, qarashlar, teran bilimlar va xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Shaxsning ma'naviy kamoloti jarayonida jamiyat, davlat, xalq, elat, millat, ijtimoiy guruh, jamoa, oila, ota-ona mavjud voqelikdan kelib chiqqan holda unga nisbatan bir qator axloqiy-ma'naviy, siyosiy-huquqiy, ma'rifiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan talabalarni qo'yadi va uni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Shaxs avvalo inson, odam bolasi sifatida eng oliy qadriyat hisoblanadi. Uning ma'naviy kamoloti hozirgi kunda ko'p jihatdan umuminsoniy, milliy va shaxsiy qadriyatlarning ta'siriga, aks ta'siriga bog'liq.

Qadriyatlar shaxs ma'naviy kamolotning barcha bosqichlarida komillik sari intilayotgan har bir kishining dunyoqarashiga o'zining faol ta'sirini o'tkazadi.

Qadriyatlarni ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish masalasida chuqur ilmiy-tadqiqot olib borgan olim Q. Nazarov: "Qadriyat biror bir tarzda va shaklda zohir bo'ladigan, subyekt uchun muayyan ta'sirini namoyon qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko'rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar, munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma'naviylik mezonlari hamda boshqalarning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy falsafiy-sotsiologik va aksiologik kategoriyadir" - deydi.

Qadriyatlar ikkita katta turkumga, ya'ni bashariyat va tabiatga hamda jamiyat va insoniyatga daxldor qadriyat shakllariga bo'linadi.

Bashariyat va tabiatga doir qadriyatlar – umumbashariy va umumsayyoraviy, mintaqaviy va mintaq ichidagi joy bilan bog'liq (lokal) hamda insonning biologik, tabiiy - tarixiy qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Jamiyat va insoniyatga daxldor qadriyatlarga esa umumijtimoiy va umuminsoniy, jamiyat hayoti, ijtimoiy ong sohalari va subyektlariga turmush, oila va jamoa hayotiga oid qadriyat

hamda insonning ijtimoiy, shaxsiy-individual qadriyatlari kiradi.

Biz ana shu ikkinchi turkumga oid bo'lgan axloqiy qadriyatlar haqida fikr yuritamiz.

Axloqiy qadriyatlar inson ma'naviy kamoloti sarchashmalaridan biri bo'lib, u tufayli jamiyat ravnaq topadi, fuqarolarning baxt-saodat haqidagi orzu-umidlari ro'yobga chiqadi. Qadriyat maqomini olgan axloq ana shu jarayonda o'zining ijobiy kuchini namoyish qiladi. Axloqning aksiologik funksiyasi – bu “axloqiylik va axloqsizlik”, “yaxshilik va yomonlik” nuqtai nazaridan odamlarning xatti-harakatlariga, niyati, maqsadi, o'y-xayollariga, vaj-sabablariga, axloqiy qarashlari va shaxsiy xislatlariga baho berish asosida ularni qadrlashni amalga oshirishdir. Axloqlilik va axloqsizlikning mezonlari har bir muayyan davrdagi kishilarning xatti-harakatlari konkret sharoitlaridan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'qiqlash yoki ma'qullashdan iboratdir. Jamoatchilik fikri, qonunlar, turli e'tiqodlar axloqiy ta'qiqlarni belgilaydi. Insonning axloqiy yetuklik darajasini ham bir shaxs emas, balki jamoatchilik belgilaydi. Kishilar o'rtasidagi munosabatlarni axloqiy yoki g'ayriaxloqiy, deb baholash, jamiyat a'zolarining imoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, manfaati darajasiga ham bog'liq. Jamiyat rivojlangan sari axloqning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyati ham ortib borgan. Shuning uchun ham hamma davrlarda kishilar axloqiy qadriyatlarni yuqori baholab kelganlar.

Odamning chiroyli yoki qo'pol gapirishidan, uning xatti - harakatlaridan axloqlilik darajasini aniqlash mumkin. Lekin insonning faqat shirin so'zlariga qarab, uni axloqli deya olmaymiz. Chunki chiroyli so'zlar hamma vaqt ham dildagi yaxshi niyat, yuksak maqsadlarning ifodasi bo'lavermaydi. Axloq inson qalbining xazinasidir. Chiroyli so'zlab, axloq haqida uzundan-uzoq va'z- nasihat qiladigan ba'zi kishilarning o'zlari axloqiy qadriyatlardan chekinib, ularga bepisand qaraydilar.

Axloqlilik va axloqsizlik mezonlarini shaxsiy manfaatlardan kelib chiqib ham baholab bo'lmaydi, chunki axloq ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, jamiyat bilan shaxs, jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlarning ma'naviy asosini tashkil etadi. Jamiyatda har bir shaxs o'zi uchun ma'qul bo'lgan ishni axloqli, deb topaversa, u boshqa mezonlarni unutadi va axloqsizlikka yuz tutadi.

Shuning uchun ham axloqning ijtimoiy funksiyasi axloqiy qadriyatlarning qanchalik hayotiy yoki hayotiy emasligini ifodalovchi vositalardan biri hisoblanadi. Axloqning maqsadga yo'naltirish funksiyasi bu jamiyat hayotida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan axloqiy qadriyatlar tizimining istiqbollari belgilab beruvchi yo'lchi yulduz ishini bajaradi. Axloqning bu funksiyasi har bir jamiyat uchun o'ta zarur bo'lgan axloqiy qadriyatlar tizimini ishlab chiqishdir. Shu tufayli ba'zi bir axloqiy qadriyatlar umuminsoniy yoki milliy darajaga ega bo'ladilar.

Turli irq'larga mansub bo'lgan insonlar turli davrlarda, bir-biridan farq qiluvchi tabiiy, ijtimoiy, siyosiy sharoitlarda yashaydi, turli dinlarga e'tiqod qiladi, turli tillarda so'zlashadi. Yaxshilikni yomonlikdan, adolatni adolatsizlikdan, mardlikni nomardlikdan, halolni haromdan, insofni insofsizlikdan, sadoqatni sotqinlikdan, dangasalikni mehnatsevarlikdan, vatanparvarlikni vatanfurushlikdan, fidoiylilikni loqaydlikdan, hurmatni hurmatsizlikdan, ma'rifatni razolatdan va xurofotdan ajrata olmagan xalqlar tarixda bo'lmagan. Shu sababli ham axloq barcha insonlarni bir-biri bilan bog'lab, birlashtirib turuvchi umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi.

XULOSA

Umuminsoniy qadriyatlar haqida gapirar ekanmiz, avvlambor, insonning o'zi va uning hayoti eng oliy qadriyat ekanligini unutmashimiz lozim. Chunki, inson yo'q joyda biror narsaning qadr-qimmatini haqida gapirish joiz emas. Shuning uchun ham davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilim va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'ligini saqlash tashkil etadi.

O'z vatanini sevis, unga bo'lgan sadoqat, mehr-muhabbat ham yuksak umuminsoniy axloqiy qadriyat hisoblanadi. Vatanni sevmagan, o'z millatining qadriga yetmagan kishi o'zganing ham, insoniyatning ham, butun dunyo obodligining ham qadriga yetmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, 1995. –Б. 15
2. Абу Наср Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. - Тошкент: “Ёзувчи”, 2001. 1-86-б.
3. Арасту. Поэтика. Ахлоқи Кабир. - Тошкент.: «Янги аср авлоди», - 94-б.
4. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. - Тошкент.: “Ёзувчи”. 1996. –Б.143.
5. Митина О.В. «Женщина в обществе. Женское гендерное поведение в социальном и кросскультурном аспектах». М.: Общественные науки и современность. №3, 1999.с.179-180
6. Назаров Қ. Аксиология: қадриятлар фалсафаси. – Тошкент.: “Маънавият”, 1998. - 41-б.
7. Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони. -Тошкент.: « Шарқ ». 1994. –Б. 9.

FALSAFA

8. Саидов А., Таджиханов У. Давлат ва ҳуқуқ асослари. - Тошкент.: «Шарқ»,.. 2002. -32-б.
9. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. - Тошкент.: Университет, 1998, -Б. 82.